

O'ZBEK TILI KORPUSINI YARATISHDA O'ZLASHMA GRAMMATIK MODELLARNI AJRATISH MASALASI

Qo'ziyev Umidjon

PhD., dotsent

Namangan davlat universiteti.

Annotatsiya: O'zbek tilida keng qo'llanadigan tasnif va tahlilga muhtoj birliklardan biri – o'zlashma qolipli birikmalardir. Bu tushuncha tarkibiga semantik va sintaktik jihatdan bir butun bo'lgan bir necha birliklar kiritiladi, biroq ularning o'rtasida farq mavjud. Keyingi yillarda o'zbek tilining leksik qatlamidan tashqari grammatik qurilishiga ham ta'sir qiluvchi bir qancha birliklar kirib keldi. Maqola aynan kalkalashgan birikmalar, ularning xususiyatlari, joriy o'rganilishi va muammoli jihatlari atroflicha yoritilgan

Kalit so'zlar: korpus, o'zlashmalar, kalka, morfologik o'zlashma, izofa, frazeologizm, kollokatsiya, abbreviatura

Annotation: One of the widely used units in Uzbek language that needs classification and analysis is the borrowed pattern compounds. This concept includes several units that are semantically and syntactically the same, but there is a difference between them. In the following years, in addition to the lexical layer of the Uzbek language, a number of units affecting the grammatical construction have entered. The article describes in detail the loan-calqued grammatical compounds, their characteristics, current research and problematic aspects.

Keywords: corpus, acquisitions, calque, morphological acquisition, izafet, phraseologism, collocation, abbreviation

Аннотация: Одной из широко используемых единиц узбекского языка, нуждающейся в классификации и анализе, являются заимствованные образцы грамматических соединений. В это понятие входит несколько единиц, семантически и синтаксически одинаковых, но между ними имеется разница. В последующие годы помимо лексического пласта узбекского языка вошел ряд единиц, влияющих на грамматическую конструкцию. В статье подробно описаны калькированные грамматические модели, их характеристики, современные исследования и проблемные аспекты.

Ключевые слова: корпус, наборы, калька, морфологическая заимствования, изафет, фразеологизм, словосочетание, аббревиатура.

2018-yilda dunyo tilshunoslari tillarning yashovchanlik qobiliyati aks etgan ma'lumotnomani chop etishdi [9]. Ma'lumotnomada dunyo tillari milliy (national), kuchli (vigorous), yo'q bo'lib ketayotgan (extinct), harakatsiz (dormant), o'layotgan (moribunt), siljiyotgan (shifting) tillar kabi guruhlarga bo'lib tasniflangan va barcha tillarning ro'yxati keltirilgan. Jumladan, o'zbek termini ostida janubiy o'zbek, shimoliy o'zbek, o'zbeki (somiylar tillari oilasida) kabi tillar keltiriladi. Shimoliy o'zbek tili milliy til sifatida, janubiy o'zbek tili kuchli til sifatida, uzbeki tili esa siljiyotgan til sifatida baholangan. Unda aytilishicha, har hafta dunyoda bitta til o'limga mahkum. Trevor English o'z maqolasida o'layotgan tillarning muhim to'rtta belgisini sanab o'tadi:

1. Milliy madaniyat va olamning milliy manzarasi yo‘qolishi.
2. Tarixiy xotiraning yo‘qolishi.
3. Tilning tabiiy manbalari (shevalar, og‘zaki nutq shakllari)ning yo‘qolishi.
4. Til vakillari o‘z ona tillarida gapira olmay qolishi [English, 2019].

YUNESKO o‘zining til bo‘yicha hisobotlarida o‘lib borayotgan tillar ro‘yxatini beradi (mazkur ro‘yxatda o‘zbek tili yoki uning turli shakllari ko‘rsatilmagan) va ularni quyidagicha tasniflaydi:

1. Zaif tillar (Vulnerable) – bolalar oilada juda oz mavzuda so‘zlashadilar;
2. Xavf ostidagi tillar (Definitely endangered) – yosh avlod o‘z ona tillarini o‘rganmaydilar;
3. Kuchli xavf ostidagi tillar (Severely endangered) – katta avlod vakillari so‘zlashadigan, biroq yosh avlod bilan muloqotda ishlatilmaydigan tillar;
4. Muqarrar xavf ostidagi tillar (Critically endangered) – katta avlod vakillari ham qisman yoki kam ishlatadigan tillar.
5. Yo‘qolib borayotgan tillar (Extinct) – so‘zlovchilari mavjud bo‘lmagan tillar [The Guardian, 2011].

Bular o‘ta yuqori qatlam belgilari bo‘lib, ularning ham mayda, sezilar-sezilmas shakllari mavjud.

Bizningcha, bu tasnifda tillarning kompyuter modellari yaratilmaganligi, o‘sha tilda ilmiy, ommabop, rasmiy elektron manbalarning yetishmasligi ham hisobga olingan bo‘lishi kerak. Shu nuqtayi nazardan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 5850-sonli “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonida “davlat tili sofligini saqlash, uni boyitib borish va aholining nutq madaniyatini oshirish; davlat tilining axborot va kommunikatsiya texnologiyalari, xususan, Internet jahon axborot tarmog‘ida munosib o‘rin egallashini ta‘minlash, o‘zbek tilining kompyuter dasturlarini yaratish; davlat tili qoidalarining buzilishi bilan bog‘liq holatlarni muntazam va har tomonlama o‘rganish, ularni bartaraf etishga doir chora-tadbirlarni ishlab chiqish” [1] alohida vazifalar sifatida belgilab berilgan.

So‘z o‘zlashtirishni nazoratga olish ayrim olimlar tomonidan sifat jihatiga ko‘ra “universal o‘zlashtirish” [Harris, Campbell, 1995] , ayrimlari tomonidan turli ijtimoiy munosabatlar natijasida yuzaga keladigan tizimli ta‘sir natijasi [Thomason, 2001] sifatida baholangan.

So‘zlarning morfologik jihatdan o‘zlashuvi borasida Haspelmat va Tadmorning O‘zlashmalar tipologiyasi loyihasi alohida ko‘zga tashlanib turadi [Haspelmath, M., & Tadmor, U., 2009]. Bu loyiha ikki muhim nuqtasi mavjud. Biri – turli tillardan olingan o‘zlashmalar ma‘nosi solishtirilgan ma‘lumotlar ombori shakllantirilganligi, ikkinchisi – bu leksikasida o‘zlashmalar hissasiga ko‘ra tillar tasniflanganidir. Tadmorning fikricha, so‘z o‘zlashuvi eng qiyin bo‘lgan tillar sintetik tabiatli tillar bo‘lib, unda birinchidan fe‘llarning o‘zlashuvi qiyin bo‘lsa, ikkinchidan boshqa turkumlar ham morfosintaktik qulay holatga keltirilishi kerak. Shu sababli sintetik tillarda otlarning o‘zlashuvi faolroq kechadi [Tadmor, 2009; 63] .

Ma‘lumki, tillarni tipologik tasniflashda tilning eng o‘zgaruvchi qismi sifatida uning lug‘at qatlami, keyin fonetik va so‘ngra grammatik qurilishlari hisobga olinadi [Nurmonov, 2012; 48-49].

XX asrda, avvalo, rus tili, shuningdek, hozirda ingliz tilining ta'siri tufayli o'zbek tilining gramm atik sathida ham sezilarli o'zgarishlar yuz bermoqda. Shu sababli soha mutaxassislari hushyorroq va mas'uliyatliroq faoliyat yuritishlari talab qilinadi [Kuziyev, 2023; 310].

Zamonaviy sharoitda o'zbek tilining formal grammatikasini yaratishda va dasturiy ta'minotini tuzishda grammatik o'zlashmalar yoki so'z va gapni so'zma-so'z kalkalab ko'chirish holati ko'p kuzatiladi. Shu tufayli ham onlayn tarjima dasturlarida so'zlar o'zbekcha bo'lib, so'zlar o'rtasidagi sintaktik aloqa to'g'ri qo'yilgan bo'lsa-da, semantik va uslubiy jihatdan xato o'rinlar ko'p kuzatiladi. Shu sababli Wikipedia uchun material tayyorlashda o'zbek tiliga xos bo'lmagan materiallar ko'payib ketgan.

O'zbek tilining grammatik qurilishiga ta'sir qilgan o'zlashma birliklarga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

1. Arabiy va forsiy izofalar. Arab va fors tilida grammatik jihatdan flektiv tillar qatoriga kiradi, unda so'z birikmalarida hokim so'z oldin, tobe so'z keyin keladi: *Oynayi jahon*, "*Navodir ush-shabob*" kabi. O'zbek tiliga tarjima qilishda odatda so'zlar fonetik jihatdan almashtirilib, izofa shakli saqlanadi.

2. Frazologizmlar – masalan, rus tilidan kirgan "tish-tirnog'igacha qurollangan" (вооружён до зубов), "Oq yo'l" (В добрый путь!), "Tug'ilgan kuningiz bilan" ("С днём рождение"), "chin ko'ngildan" (Из глубине души), "Asabini o'ynamoq" (Играть на нервах) kabi.

3. Turg'un birikmalar: Jumladan, vazirliklar nomlari: *Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarni rivojlantirish vazirligi*, *Uy-joy kommunal xazmat ko'rsatish vazirligi* kabi; agentliklar va markazlar nomlari: *Alisher Navoiy nomidagi O'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslari o'qitish va malaka oshirish markazi* kabi

4. Abbreviaturalar. Bu birliklar bevosita rus tili ta'sirida vujudga kelgan bo'lib, ayrim mutaxassislar ularni yasama so'z sifatida baholagan o'rinlar ham mavjud. Lekin bu shakllarning ma'noviy asosi bo'lmagani uchun abbreviatsiya so'z yasash usullari sirasiga kirmaydi.

5. Kollokatsiyalar – sintaktik va semantik jihatdan bir butun so'zlar birikmasini bildirib, uning tarkibiy qismlaridan biri mazmuniy tayanch vazifasini bajaradi, ikkinchi so'z esa shuning kuchli valentligi asosida birikadi. Kollokatsiyalar ayrim o'rinlarda *barqaror birikmalar* yoki *frazologik so'z birikmalari*, *N-grammalar* nomi bilan yuritilishi ko'rsatiladi [11]. Biroq o'zbek tilshunosligida kuzatiladigan yondashuvlarda bu tushunchalar va ular ifodalaydigan birliklar mohiyati o'zaro mos kelmaydi. Yuqoridagilardan kelib chiqilsa, kollokatsiyalar frazeologik qo'shilma terminiga mos keladi. Tuzilishi va semantik butunlik ifodalashiga ko'ra kollokatsiyalar tasviriy ifodalarga birmuncha mos keladi. har ikkalasida 1-unsur o'z ma'nosida, 2-unsur biroz ko'chma ma'noda ishlatiladi.

Kollokatsiyalar safiga tarkibli toponim, antroponim kabilar kiradiki, ular turg'un birga qo'llanishi bilan ajralib turadi [11]: *Sulaymon tog'i*, *Islom Karimov*, *Bibixonim madrasasi* kabi.

Kollokatsiyalarda o'z ma'nosida qo'llangan so'zlar ochqich qism yoki erkin qism deyiladi: ta'sir ko'rsatmoq, chuqur afsus kabi. Ma'nosiga e'tibor berilmagan holda ixtiyorsiz ravishda xotiraga saqlanadigan so'z esa yordamchi qism hisoblanadi. Mazkur birliklarda so'zlar tanlanishi juda cheklangan bo'lgani uchun, ularning uslubiy qo'llanishi ham chegaralangan bo'ladi. Shuni ham aytib o'tish kerakki, rus tilidan ko'plab frazeologik chatishmalar turli asarlar, tarjimalar vositasida o'zbek tiliga kirib kelgan: yordam ko'rsatmoq (qilmoq o'rniga), tish-tirnog'igacha qurollangan kabi.

Bundan tashqari, turli afishalarda mutaxassislar e'tibor bermayotgan o'zbek tiliga xos bo'lgan ayrim sintaktik jihatdan xato birliklar ham kuzatilmoqda:

Biz ochildik.

Sengamas, meni haqorat qilish (/meni haqorat qilish sen uchun emas).

Pianinoda o'ynaydi.

Velosipedda uchadi.

10 nafar professor o'qituvchilar

Korpus lingvistikasida qabul qilinayotgan o'zlashma so'zlarga til foydalanuvchilarining reaksiyalarini baholash vazifasi ham qo'yilgan, zero til egalari uchun grammatik qoidalar emas, so'zning ma'nosi muhimroq. Natijada ijtimoiy-siyosiy yo'naltirilgan so'zlarning denotativ va konnotativ ma'nolari o'rtasidagi farqlarning nomuvofiqligini tadqiq etish mumkin [Hamdi, 2018; 7]. Bu o'rinda tilning egalari va tilni yangi o'rganayotganlar kognitiv olamini pedagogik jihatdan tartibga solish ham hal etiladi.

Адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 5850-сонли “O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”ги Фармони. Манба: <https://lex.uz/ru/docs/-4561730>
2. English T. What Happens When a Language Dies and is Forgotten? // Interesting Engineering, 30.09.2019. Манзили: <https://interestingengineering.com/what-happens-when-a-language-dies-and-is-forgotten> Мурожаат санаси: 14.04.2022.
3. Hamdi, Sami Abdullah. The Impact of Ideology on Lexical Borrowing in Arabic: A Synergy of Corpus Linguistics and CDA. PhD diss. at Educational Linguistics University of New Mexico – USA: Albuquerque, New Mexico December, 2018. P.7.
4. Harris A., Campbell L.. Historical syntax in cross-linguistic perspective. - Cambridge: Cambridge University Press. 1995.
5. Haspelmath, M., & Tadmor, U. (2009). Loanwords in the world's languages: a comparative handbook. Walter de Gruyter.
6. <https://www.theguardian.com/news/datablog/2011/apr/15/language-extinct-endangered> Мурожаат санаси: 14.04.2022.
7. Tadmor, U. (2009). Loanwords in the world's languages: Findings and results. Loanwords in the World's Languages: A Comparative Handbook, 55–75. – P.63.
8. Thomason, Sarah. Language Contact: An Introduction. Washington D.C.: Georgetown University Press, 2001; Thomason, Sarah and Terrence Kaufman. Language Contact, Creolization, and Genetic Linguistics. Berkeley: University of California Press, 1988.
9. Манба: <https://d310pm6npapqqb.cloudfront.net/free-download/Glossika%20Language%20Vitality%20Report%202018.pdf> (Мурожаат этилган сана: 14.04.2022)
10. Нурмонов А. Танланган асарлар. 3 жилдли. 1-жилд. – Тошкент: Академнашр, 2012. 48-49-бетлар.
11. Манба: https://en.wikipedia.org/wiki/Longest_word_in_English (Мурожаат этилган сана: 14.01.2022)
12. Kuziev U. Y. The issue of classification and description of complex structural compounds in uzbek language //Int J Eval & Res Educ. – 2023. – T. 99. – №. 4. – С. 309-314.

13. Yandashaliyevich Q. U. O 'Z QATLAMDAGI O 'ZLASHMA QOLIPLAR //' Uchinchi renessansda ilmiy-amaliy tadqiqotlarning dolzarb muammolari" mavzusidagi onlayn konferensiyasi. – 2022. – T. 1. – №. 8. – С. 112-115.
14. Саидова М., Қўзиев У. Лингвокультуроология. – 2017.